

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

№6

ILMIY ELEKTRON JURNALI





ISSN: 2181-3965
VOLUME 6
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avezimbetovich – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, texnika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma’naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta’lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

To‘lqin Zakirovich Teshabayev –iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne’matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymuratov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Fan, ta’lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo‘mitasi raisi

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta’lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu’min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyevich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Teshayev Zavqiddin Jabbor o‘g‘li – Qarshi davlat universiteti Turizm va marketing kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Xalilova Shoxsanam G’ayrat qizi - iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Hazratqulov Shahboz Boboqul o‘g‘li – Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas’ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O’zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

“**Moliyaviy texnologiyalar**” ilmiy elektron jurnali 23.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

MUNDARIJA

1.	Jumayev Akbar Mahmudovich	Turizmning hududiy iqtisodiyotdagi o‘rni va joylashtirish resurslaridan foydalanish samaradorligini statistik baholash	8
2.	Mamutova Amina Raxmetovna	Qurilish tashkilotlarida zamonaviy va ananaviy usullarda xarajatlarni hisoblashning usullari	14
3.	Нурматова Насиба Шерзодовна, Гозиев Ризоиддин Чулпонович	Экономическая роль Узбекистана как стратегического партнера в Центральной Азии	23
4.	Amatov Azizbek G‘ayrat o‘g‘li	Tijorat banklarida aktiv va passivlarni boshqarishda obligatsiya emissiyasining o‘rni: likvidlik, muddatlar nomuvofiqligi va qayta moliyalash risklari	29
5.	Saitkulov Suxrob Shavkatovich	Budjet tashkilotlarida ichki auditning natijadorligini baholash ko‘rsatkichlari tizimini takomillashtirish	36
6.	Kulboyeva Nargiz Majitovna	Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonini takomillashtirish	43
7.	Alimqulov Hikmatulla Bahrom o‘g‘li	Prognozdan ortiq soliq tushumlarini hududiy budjetlarda qoldirishning tabaqalashtirilgan mexanizmi	52
8.	Jo’rayev Shoxrux Yunusali o’g’li, Temirova Dilshoda Erkin qizi, Togayev Salim Sobirovich	Loyiha boshqaruvida Scope creep muammosi: sabablari, oqibatlari va oldini olish mexanizmlari	61
9.	Djurayeva Iroda Bahrom qizi	O‘zbekistonda institutsional islohotlar samaradorligini xalqaro boshqaruv indikatorlari asosida baholash	68
10.	Otaxonov Komilxon Saidolim o‘g‘li	Oliy ta’lim muassasalarining iqtisodiy barqarorligini kompleks baholash metodologiyasini takomillashtirish	73
11.	Tillaxo‘jayeva Sadoqatxon Shuxrat qizi, Ungarbayeva Aynura Baxtiyer qizi, Togayev Salim Sobirovich	Loyiha boshqaruvida xaridlar va manfaatdor tomonlar bilan ishlash	80
12.	Mexmonaliyev Abbosjon G‘ayratjon o‘g‘li	“Yashil” loyihalarni moliyalashtirishda moliyaviy-ekologik skoring modelini joriy etish mexanizmini takomillashtirish	88
13.	Shovkatov Nodirjon Ne’matjon öğli	Özbekistonda köçmas mulkni ommaviy baholaşning institutsional va metodologik asoslarini takomillaştiriş	95
14.	Jo‘rayev Isroil Ibrohimovich	Tijorat banklari faoliyati transformatsiyalashuvining bank xizmatlari raqobatbardoshligini oshirishdagi roli	103

15.	Tadjibekova Dilnoza Baxtiyarovna	Fintex to‘lov servislarining (Payme, Click, Uzum) moliyaviy inklyuziyani kengaytirishdagi roli va ahamiyati	112
16.	Davranov Odil Jumanazarovich	Surxondaryo viloyatida ovlangan baliqlar hajmi ko‘rsatkichlarini arima modeli yordamida prognozlashtirish	124
17.	Tashxodjayeva Sevara Yarashevna	HR-brendingning paydo bo‘lish shart-sharoitlari va asosiy tushunchalarining shakllanishi	135
18.	Shaislamova Nargiza Kabilovna, Zohidova Ruxsora Komiljon qizi	O‘zbekistonda islomiy moliya asosida investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlari	141
19.	Сабирова Лола Шавкатовна	Взаимосвязь экономических и этических основ Узбекского предпринимательства	152
20.	Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich	O‘zbekistonda raqamli to‘lovlar va moliyaviy texnologiyalar bozorining rivojlanishi: tendensiyalar, xatarlar va tartibga solish yo‘nalishlari	158
21.	Mamarajabov Abdisamad Saidmurot o‘g‘li	Bojxona auditida tanlov mexanizmlari va ichki nazoratni baholashning ilmiy-amaliy jihatlari	166
22.	Qilichev Sanjarbek Javlonbek o‘g‘li	Sug‘urta kompaniyalarining investitsion jozibadorligi iqtisodiy mohiyati va uni shakllantiruvchi omillarning nazariy-metodologik asoslari	173
23.	Mamatov Baxadir Safaraliyeviç	Özbekistonning xalqaro investitsiyaviy hamkorligini rivojlantirişning iqtisodiy mexanizmlari va ustuvor yönalişlari	183
24.	Ruziyev Baxtiyor Salimboyeviç	Özbekiston tijorat banklarining moliyaviy holatini topologik ma’lumotlar tahlili usulida baholaş	193
25.	Bo’riboyeva Zamiraxon Ravshan qizi	Yengil sanoat tarmoqlarida investitsiya loyihalarini moliyalaştiriş: muammolari va ularni hal etiş yöllari	202
26.	Арипов Нодир Салимович	Рақамли трансформация минтақа иқтисодиётини барқарор ривожлантириш омили сифатида	213
27.	Маматов Ахметжон Атажанович	Миллий иқтисодиётни тадқиқ этишнинг илмий-назарий асослари ва уни трансформациялаш омиллари	220
28.	Umurzakova Mo‘tabarxon Nodir qizi	Janubiy Koreyada tibbiy sug‘urta tizimini moliyalashtirish mexanizmlari va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari	229
29.	Abdulxakimov Sirojiddin Nurboy o‘g‘li	Korporativ tuzilmalar tomonidan xalqaro Yevroobligatsiyalar joylashtirish amaliyotining tahlili	235

30.	Dehkanova Nargiza Sharifovna	Kimyo sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni baholash mexanizmlarini shakllantirishning konseptual asoslari	242
31.	Xalilova Shoxsanam G‘ayrat qizi	O‘zbekistonda ta’lim va sog‘liqni saqlash sohasini budjetdan moliyalashtirish holatining tahlili	249
32.	Xamdamov Omonullo Ne’matullayevich	Sug‘urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari	254
33.	Xudayarov Oybek Odilovich, Hayitova Dilnura Ikromjon qizi	Tijorat banklarida aktiv va passivlarni boshqarish jarayonlarida xalqaro audit standartlarining o‘rni	262
34.	Fayazov Xasan Jaxongir o‘g‘li	Behavioral economics of financial self-control: saving and spending decisions	268
35.	Maxmasaidova Muslima Ubaydulla qizi, Sirojitdinov Abdulxamid Alimovich	Aholi daromadlari va iste’mol xarajatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni SPSS dasturida ekonometrik baholash va test xatoliklarini tahlil qilish	277
36.	Şerimbetov Inomjon Xalilullayevıç	Moliyaviy hisobotlar sifatini ta’minlaşning nazariy asoslari	286
37.	Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	Davlat tibbiyot tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobi uslubiyotini takomillashtirish: xorij tajribasi va uslubiy model	292

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

TIJORAT BANKLARIDA AKTIV VA PASSIVLARNI BOSHQARISH JARAYONLARIDA XALQARO AUDIT STANDARTLARINING O‘RNI

Xudayarov Oybek Odilovich
“Bank hisobi va auditi” kafedrasi PhD.,dotsenti
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: o.khudoyorov@tsue.uz
ORCID: 0000-0003-0208-4992

Hayitova Dilnura Ikromjon qizi
“Bank ishi” kafedrasi magistranti
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: dilnurahayitova10@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tijorat banklarida aktiv va passivlarni boshqarish jarayonida xalqaro audit standartlarining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Bank aktivlari va passivlarini samarali boshqarish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, likvidlik hamda kredit risklarini nazorat qilishda auditorlik tekshiruvlarining ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, xalqaro audit standartlarining bank faoliyatiga oid risklarni aniqlash va baholash, auditorlik dalillarini to‘plash hamda moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlashdagi imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Maqolada xalqaro audit standartlarini tijorat banklari amaliyotida qo‘llashni takomillashtirish va audit samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish masalalariga e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *tijorat banklari, bank aktivlari, bank passivlari, aktiv va passivlarni boshqarish, xalqaro audit standartlari, ichki nazorat, auditorlik tekshiruvi, moliyaviy barqarorlik, likvidlik riski, kredit riski.*

РОЛЬ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ АУДИТА В ПРОЦЕССЕ УПРАВЛЕНИЯ АКТИВАМИ И ПАССИВАМИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ

Худаяров Ойбек Одилович
PhD, доцент кафедры “Банковский учёт и аудит” Ташкентского государственного экономического университета
E-mail: o.khudoyorov@tsue.uz

Хайитова Дилнура Икромжон кизи
Магистрант кафедры “Банковское дело”
E-mail: dilnurahayitova10@gmail.com

Аннотация. *В статье рассматриваются роль и значение международных стандартов аудита в процессе управления активами и пассивами коммерческих банков. Обосновывается значимость аудиторских проверок для эффективного управления банковскими активами и пассивами, обеспечения финансовой устойчивости, а также контроля рисков ликвидности и кредитного риска. Кроме того, рассматриваются возможности применения международных стандартов аудита при выявлении и оценке рисков банковской деятельности, сборе аудиторских доказательств и обеспечении достоверности финансовой отчетности. Особое внимание уделяется вопросам совершенствования применения международных стандартов аудита в практике*

коммерческих банков и разработке предложений, направленных на повышение эффективности аудита.

Ключевые слова: *коммерческие банки, банковские активы, банковские пассивы, управление активами и пассивами, международные стандарты аудита, внутренний контроль, аудиторская проверка, финансовая устойчивость, риск ликвидности, кредитный риск.*

THE ROLE OF INTERNATIONAL AUDITING STANDARDS IN THE ASSET AND LIABILITY MANAGEMENT OF COMMERCIAL BANKS

Khudayarov Oybek Odilovich
PhD, Associate Professor of
the Department of Banking Accounting and Audit
Tashkent State Economic University
E-mail: o.khudoyorov@tsue.uz

Khayitova Dilnura Ikromjon qizi
Master's student of the department Banking
Tashkent State Economic University
E-mail: dilnurahayitova10@gmail.com

Abstract. *This article examines the role and significance of International Standards on Auditing (ISAs) in the asset and liability management of commercial banks. It explains the importance of auditing in ensuring effective management of bank assets and liabilities, maintaining financial stability, and monitoring liquidity and credit risks. Furthermore, the article explores how international auditing standards support the identification and assessment of banking risks, the collection of audit evidence, and the reliability of financial statements. Particular attention is paid to improving the application of international auditing standards in commercial banking practice and developing recommendations aimed at enhancing audit effectiveness.*

Keywords: *commercial banks, bank assets, bank liabilities, asset and liability management, International Standards on Auditing, internal control, audit, financial stability, liquidity risk, credit risk.*

Kirish

Bugungi kunda bank tizimida moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, mavjud resurslardan samarali foydalanish, likvidlikni saqlash hamda turli moliyaviy risklarni o‘z vaqtida aniqlash tijorat banklari faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tijorat banklarining aktiv va passivlarini samarali boshqarish bankning daromadliligi, to‘lovga qobiliyati va moliyaviy barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli bank aktivlari va passivlari tarkibini muntazam tahlil qilish, ularning hajmi, muddati, qiymati va risk darajasi o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Bank aktivlari, asosan, kreditlar, investitsiyalar va likvid mablag‘lardan tashkil topgan bo‘lsa, passivlar depozitlar, jalb qilingan qarz mablag‘lari hamda bank kapitalini qamrab oladi. Mazkur aktiv va passivlar o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi kredit, likvidlik, foiz, foiz stavkasi, va boshqa moliyaviy risklarning yuzaga kelishi va shu risklarni kuchayishiga olib kelishi mumkin. Bunday vaziyatda bank faoliyatining moliyaviy natijalarini xolis baholash, buxgalteriya hisobi ma’lumotlarining ishonchliligini tekshirish hamda ichki nazorat mexanizmlarining samaradorligini aniqlash zarurati ortib boradi.

Xalqaro audit standartlari bank faoliyatini tekshirishda risklarni erta aniqlash va baholash, auditorlik dalillarini to‘plash, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini tekshirish hamda aniqlangan kamchiliklarni baholash uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xususan, Xalqaro audit va ishonch bildirish standartlari kengashi (IAASB) tomonidan ishlab chiqilgan Xalqaro audit standartlari banklarning moliyaviy hisobotlarini auditdan o‘tkazishda auditorlik yondashuvlarini takomillashtirishga yordam beradi. Jumladan, ISA 315 standarti moliyaviy hisobotlarda muhim buzib ko‘rsatish risklarini aniqlash va baholashga qaratilgan bo‘lib, bank aktivlari va passivlari bilan bog‘liq risklarni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar sharhi

Tijorat banklarida aktiv va passivlarni samarali boshqarish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash hamda bank faoliyatiga xos risklarni kamaytirishda auditning o‘rni mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida turli jihatlardan yoritilgan. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy adabiyotlarni shartli ravishda bank aktivlari va passivlarini boshqarish, bank auditi va ichki nazorat, shuningdek, xalqaro audit standartlarini qo‘llash masalalariga ajratish mumkin.

S.Akbarmirzo va A.A.Qosimovning “Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish usullarini takomillashtirish” nomli maqolasida aktiv va passivlar muvozanatini saqlash, bank resurslaridan samarali foydalanish, likvidlikni ta’minlash va daromadlilikni oshirish masalalari yoritilgan. Mualliflar aktivlarni diversifikatsiyalash va passivlar tarkibining barqarorligini ta’minlash kabi yondashuvlarni ko‘rib chiqadilar. Ushbu tadqiqot bankning aktiv va passivlarini boshqarish samaradorligini baholashda likvidlik, daromadlilik, resurslar tarkibi va risk ko‘rsatkichlarini birgalikda tahlil qilish muhimligini ko‘rsatadi. Mazkur ko‘rsatkichlar auditorlik tekshiruvi doirasida bank moliyaviy holatini tahlil qilish uchun ham ahamiyatlidir [1].

Xorijiy tadqiqotchilardan Moorad Choudhry bank aktivlari va passivlarini boshqarish masalasini likvidlik, foiz stavkasi riski, moliyalashtirish manbalari va bank balansining tarkibi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganadi. Muallifning “An Introduction to Banking: Principles, Strategy and Risk Management” kitobidagi “Bank Asset and Liability Management I” bobida aktiv-passivlarni boshqarish siyosati, likvidlik va foiz stavkasi risklarini boshqarish hamda bank balansining tuzilishiga ta’sir etuvchi omillar yoritilgan. Choudhry yondashuvi aktiv va passivlarni alohida-alohida emas, balki bankning umumiy risk profili va moliyaviy maqsadlari bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqish zarurligini tushunishga yordam beradi. Mazkur yondashuv auditda aktiv va passivlar o‘rtasidagi nomuvofiqliklar, likvidlik risklari va moliyalashtirish barqarorligini baholash uchun metodologik ahamiyatga ega.[2]

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqola mavzusi hozirgi davrda dolzarb ahamiyat kasb etib, unda tijorat banklarida aktiv va passivlarni boshqarish(ALM) jarayonlariga xalqaro audit standartlarining ta’sirini o‘rganishda analiz va sintez usullaridan keng foydalanildi hamda olingan natijalar asosida tegishli xulosalar shakllantirildi. Tadqiqotning metodologik asoslarini ilmiy jihatdan o‘rganish, mavjud ma’lumotlarni umumlashtirish va guruhlashtirish, qiyosiy taqqoslash, iqtisodiy tahlili, shuningdek, kuzatuv kabi usullar qo‘llanildi. Shuningdek, ISA va XMHS talablarining aktiv va passivlarni boshqarish jarayonlariga tatbiqi bo‘yicha xorijiy tajribani o‘rganishda mantiqiy umumlashtirish va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Tijorat banklarida aktiv va passivlarni boshqarish jarayonlariga xalqaro audit standartlarining ta’siri nazariy jihatdan tadqiq qilindi. Bank tizimi faoliyati kengayib, murakkablashib borayotgan sharoitda aktiv va passivlar tuzilmasi ham tez o‘zgarmoqda. 2017–2025-yillarda bank tizimi aktivlari 5,5 baravarga, majburiyatlari 5,4 baravarga o‘sib, aktivlar 925 trln so‘mga, majburiyatlar 789,4 trln so‘mga yetgan. Kredit qoldig‘i ham shu davrda 5,5 baravar oshib, 604 trln so‘mni tashkil etgan. Hajmning bunday o‘sishi likvidlik, foiz stavkasi va muddatlar nomuvofiqligi bilan bog‘liq xatarlarni ham kuchaytiradi, bu esa aktiv va passivlarni boshqarish jarayonlarining mustaqil va sifatli auditiga bo‘lgan ehtiyojni oshiradi.[3]

Ko‘rsatkichlar umuman qoniqarli. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, LCR 208 foiz,

NSFR 120 foiz darajasida shakllangan, muammoli kreditlar ulushi esa 3 foizgacha pasaygan. Shu bilan birga, bu raqamlarning ishonchliligi ularni shakllantirgan hisob-kitoblar, modellar va ichki nazorat tizimining sifatiga bog‘liq. Aynan shu jihatni xalqaro audit standartlari (ISA) baholaydi [4]. Tijorat banklarida aktiv va passivlarni boshqarish jarayonlari auditining samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar ichki va tashqi omillarga ajratildi.

1-jadval.

Aktiv va passivlarni boshqarish jarayonlari auditiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar*

№	Ichki omillar	Tashqi omillar
1	*Bankda aktiv va passivlarni boshqarish siyosati va limitlar tizimining ishlab chiqilganligi*	Normativ-huquqiy bazani xalqaro standartlarga uyg’unlashtirish jarayonining bosqichma-bosqich davom etayotgani
2	*ALCO (aktiv va passivlarni boshqarish qo‘mitasi) faoliyatining tashkil etilganligi va hujjatlashtirilganligi*	Bazel III standartlariga bosqichma-bosqich o’tishi sharoitida prudensial talablarning yangilanib borishi
3	*Ichki audit xizmatining mustaqilligi va malakali kadrlar bilan ta’minlanganligi*	Akti va passivlarni boshqarish va kredit zaxirlarini modellashtirish bo’yicha tor ixtisoslashgan kadrlar tayyorlashni kengaytirish zarurati
4	*Axborot tizimlari va ma’lumotlar sifati*	Bozor sharoitidagi o’zgaruvchanlik (foiz stavkalari, valyuta kursi).
5	*Kutilayotgan kredit zararlari (ECL) va adolatli qiymat modellarining ishonchliligi*	Auditorlik xizmatlari bozorida raqobat va audit narxining pastligi
6	*Ichki nazorat tizimining ishlash samaradorligi*	Xalqaro tajribaga asoslangan metodik qo‘llanmalarning yetarli emasligi
7	*Risklarni boshqarish bo‘limining mustaqilligi*	Regulyator bilan auditorlar o‘rtasidagi axborot almashinuvining cheklanganligi
8	*Stress-testlarning muntazam o‘tkazilishi*	Banklar faoliyati shaffofligiga jamoatchilik va investorlar talabi

*Muallif ishlanmasi

Aktiv va passivlarni boshqarish jarayonlari auditi sifatiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatadi:

- bankning moliyaviy barqarorligi va aktivlari hajmi;
- ichki nazorat va risklarni boshqarish tizimining rivojlanganlik darajasi;
- hisobot va modellarda foydalanilgan ma’lumotlar sifati;
- auditorlarning malakasi va aktiv va passivlarni boshqarish sohasidagi tajribasi;
- audit uchun ajratilgan vaqt va resurslar;
- bank rahbariyati va kuzatuv kengashining audit natijalariga munosabati va boshqalar.

Xalqaro audit standartlari aktiv va passivlarni boshqarish jarayonlari auditida quyidagicha o‘rin tutadi. Identifying and Assessing the Risks of Material Misstatement (ISA 315) asosida auditor bankning likvidlilik, foiz va valyuta xatarlarini hamda aktiv passivlarni boshqarish qo‘mitasi faoliyatini tushunib, jiddiy noto‘g‘ri ko‘rsatish xatarlarini baholaydi. Bu yerda ISA 315 ISA 540 bilan o‘zaro bog‘lanadi: ISA 315 xatarni aniqlaydi, ISA 540 esa shu hisob-kitob baholarini tekshirish tartibini belgilaydi. The Auditor’s Responses to Assessed Risks (ISA 330) ushbu xatarlarga javoban muddatlar nomuvofiqligi (GAP) hisob-kitoblari va limitlar bajarilishini tekshirish tartiblarini belgilaydi. ISA 540 kutilayotgan kredit zararlari va adolatli qiymat kabi murakkab baholarni tekshirishda asos bo‘ladi. ISA 570 likvidlilik tanqisligi sharoitida bankning doimiy faoliyat yuritish qobiliyatini baholashga xizmat qiladi, ISA 265 esa aniqlangan kamchiliklar haqida bank boshqaruviga o‘z vaqtida xabar berishni ta’minlaydi. Natijada auditor

xulosasi (ISA 700, 705, 706) nafaqat hisobotning to‘g‘riligi, balki aktiv va passivlarni boshqarish jarayonlarining ishonchliligi haqida ham ishonch hosil qiladi.[5]

Tahlil jarayonida shu narsa aniqlandiki, aktiv va passivlarni boshqarish auditining amaliy samaradorligini cheklovchi asosiy muammolardan biri auditorlarning aktiv va passivlarni boshqarish modellari va regulyator ko‘rsatkichlari (LCR, NSFR) bo‘yicha ixtisoslashgan malakasi hamda yagona metodikaning yo‘qligidir**.** Shu sababli biz tomonimizdan tijorat banklarida aktiv va passivlarni boshqarish auditi sifatini oshirishga xizmat qiladigan “Aktiv va passivlarni boshqarish audit metodik markazi”ni tashkil etish taklifi ishlab chiqildi. Ushbu markaz aktiv va passivlarni boshqarish qo‘mitasi faoliyatini baholash, ISA 315 va ISA 540 talablarini aktiv va passivlarni boshqarish jarayonlariga moslashtirish hamda ichki va tashqi auditorlar o‘rtasida metodik hamkorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.[6]

Kelajakda bank tizimining yanada rivojlanishi uchun aktiv va passivlarni boshqarish auditini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish muhim yo‘nalish bo‘lib qoladi. Bu ma’lumotlar tahlili vositalari yordamida aktiv va passivlar bo‘yicha barcha operatsiyalarni to‘liq tekshirish, xatarlarni real vaqt rejimida kuzatish va audit natijalarini tezkor shakllantirish imkonini beradi. Bu auditning sifati va ishonchliligini oshirib, bank tizimining barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa

Tijorat banklarida aktiv va passivlarni boshqarish jarayonlarida xalqaro audit standartlarining rolini oshirish va audit sifatini yaxshilash uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- tijorat banklarida aktiv va passivlarni boshqarish auditini ISA 315, 330 va 540 talablariga mos yagona audit dasturi va tekshiruv ro‘yxatlari asosida o‘tkazish tartibini joriy etish;
- Aktiv va passivlarni boshqarish qo‘mitasi faoliyatini baholash metodikasini ishlab chiqish, modellar auditini tashkil etish hamda ichki va tashqi auditorlar o‘rtasida metodik hamkorlikni ta’minlash maqsadida “Aktiv va passivlarni boshqarish audit metodik markazi”ni tashkil qilish;
- auditorlar va ichki audit xodimlari uchun aktiv va passivlarni boshqarish, stress-test, kredit zaxiralari modellari hamda XMHS 9, 7 va 13 bo‘yicha muntazam o‘quv kurslarini yo‘lga qo‘yish va xalqaro sertifikatlash (ACCA, CIA, FRM) imkoniyatlarini kengaytirish;
- LCR va NSFR hisob-kitoblarining to‘g‘riligini tasdiqlovchi alohida audit tartiblarini ishlab chiqish va ularni tijorat banklari amaliyotiga bosqichma-bosqich joriy qilish;
- ichki audit xizmatining mustaqilligini mustahkamlash, uning kuzatuv kengashiga hisobdorligini ta’minlash hamda ISA 610 talablari doirasida ichki auditorlar ishidan tashqi auditda foydalanish mexanizmini yaratish;

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yadgarova M.L., Qurbonov R.B. Bank auditi: darslik. Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.

2. Choudhry M. An Introduction to Banking: Principles, Strategy and Risk Management. Chichester: John Wiley & Sons, 2011. (Chapter: Bank Asset and Liability Management I).

3. Turdaliyeva M., Ismatov I. O‘zbekiston bank sektorining 2017–2025-yillardagi rivojlanishi infografikada [Elektron resurs] // O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (UzA). – 01.07.2026. – URL: https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-bank-sektorining-2017-2025-yillardagi-rivojlanishi-infografikada-video_877339 (Murojaat sanasi: 13.11.2026).

4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2025-yil uchun moliyaviy barqarorlik sharhi [Elektron resurs]. – 03.08.2026. – URL: https://cbu.uz/uz/financial-stability/press-releases/4124467/ (Murojaat sanasi: 13.11.2026).

5. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). International Standards on Auditing (ISA): ISA 265 (2009), ISA 315 (Revised 2019), ISA 330 (2009), ISA 540 (Revised

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

2018), ISA 570 (Revised 2015), ISA 700 (Revised 2015), ISA 705 (Revised 2015), ISA 706 (Revised 2015). — New York: International Federation of Accountants (IFAC).

6. International Accounting Standards Board (IASB). International Financial Reporting Standards (IFRS): IFRS 7 *Financial Instruments: Disclosures*, IFRS 9 *Financial Instruments* (2014), IFRS 13 *Fair Value Measurement* (2011). — London: IFRS Foundation.